



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларидан фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**BOZOR IQTISODIYOTIDA MONOPOLIYANING MOHIYATI, SHAKLLARI VA UNING
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI**

**СУЩНОСТЬ И ФОРМЫ МОНОПОЛИИ В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЕЕ
ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА**

**THE ESSENCE, FORMS OF MONOPOLY IN A MARKET ECONOMY AND ITS
IMPACT ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN**

Rasulova Shahnoza Abduvasi qizi

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida monopoliyaning mohiyati, uning shakllari hamda O‘zbekiston iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Monopoliyaning sof monopoliya, oligopoliya va monopolistik raqobat shakllari o‘rganilib, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri baholanadi. Shuningdek, O‘zbekistonda tabiiy monopoliyalar va yirik davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Natijada monopoliyani tartibga solish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Monopoliya, bozor iqtisodiyoti, O‘zbekiston iqtisodiyoti, raqobat, oligopoliya, tabiiy monopoliya, narx, davlat tartibga solishi.

В данной статье проводится научный анализ сущности монополии в рыночной экономике, ее форм и влияния на экономику Узбекистана. Изучаются формы монополии – чистая монополия, олигополия и монополистическая конкуренция – и оценивается их влияние на экономическую эффективность. Также на основе статистических данных подчеркивается роль естественных монополий и крупных государственных предприятий в экономике Узбекистана. В результате обосновывается необходимость регулирования монополии и создания здоровой конкурентной среды.

Ключевые слова: Монополия, рыночная экономика, экономика Узбекистана, конкуренция, олигополия, естественная монополия, цена, государственное регулирование.

This article scientifically analyzes the essence of monopoly in a market economy, its forms and its impact on the economy of Uzbekistan. The forms of monopoly — pure monopoly, oligopoly and monopolistic competition — are studied and their impact on economic efficiency is assessed. Also, the role of natural monopolies and large state-owned enterprises in the economy of Uzbekistan is highlighted based on statistical data. As a result, the need to regulate monopoly and create a healthy competitive environment is substantiated.

Key words: Monopoly, market economy, economy of Uzbekistan, competition, oligopoly, natural monopoly, price, state regulation.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat iqtisodiy o‘rinishning muhim omili hisoblanadi. Raqobat ishlab chiqaruvchilarni samaradorlikka, innovatsiyaga va sifatni oshirishga undaydi. Biroq real iqtisodiyotda ko‘pincha mukammal raqobat mavjud bo‘lmaydi va bozorda monopolistik tuzilmalar shakllanadi.

Monopoliya bu ma’lum bir tovar yoki xizmat bozorida yagona yoki ustun mavqega ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchi yoki korxonaning faoliyat yuritishi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy holatdir. Bunday sharoitda korxona bozordagi narx, mahsulot hajmi hamda taklif ustidan sezilarli darajada nazorat o‘rnatadi. Natijada bozorda erkin raqobat cheklanadi va iste’molchilarning tanlov imkoniyati kamayadi. Monopoliyalar tabiiy, davlat va xususiy shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa,

tabiiy monopoliyalar energetika, gaz ta’minoti, temir yo‘l transporti va kommunal xizmatlar kabi katta infratuzilma talab qiladigan sohalarda keng uchraydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham monopolistik tuzilmalarning o‘rni muhim hisoblanadi. Energetika tizimida elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish asosan yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, temir yo‘l transporti, suv ta’minoti, issiqlik xizmatlari va ayrim aloqa tarmoqlarida ham monopolistik holatlar mavjud. Bunday tizim bir tomondan aholini uzluksiz xizmat bilan ta’minlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan raqobatning sustligi sababli xizmat sifati pasayishi, narxlarning oshishi va innovatsion rivojlanishning sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Monopoliyaning iqtisodiyotga ta’siri ikki tomonlama baholanadi. Ijobiy jihatdan yirik monopol korxonalar katta moliyaviy resurslarga ega bo‘lgani sababli infratuzilmani rivojlantirish, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish va strategik tarmoqlarda barqarorlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, elektr energiyasi yoki temir yo‘l tizimini bir markazdan boshqarish ayrim hollarda xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Biroq salbiy jihatlari ko‘proq kuzatiladi. Raqobatning cheklanishi korxonalarni mahsulot sifatini oshirishga undamaydi, bu esa iste’molchilar manfaatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, monopol korxonalar o‘z mavqeyidan foydalanib narxlarni sun’iy ravishda oshirishi mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda monopoliyani kamaytirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat korxonalari xususiylashtirish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish hamda monopoliyaga qarshi nazoratni kuchaytirish maqsadida qator qonun va dasturlar qabul qilindi. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyati kuchaytirilib, ayrim sohalarga xususiy sektor jalb qilinmoqda. Natijada iqtisodiyotda raqobat muhiti asta-sekin rivojlanib, xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga zamin yaratilmoqda.

Monopoliya iqtisodiy nazariyada keng o‘rganilgan tushunchalardan biridir. Klassik iqtisodchi Adam Smith raqobatni iqtisodiyotning asosiy tartibga soluvchi mexanizmi sifatida ko‘rsatgan. Alfred Marshall esa talab va taklif asosida narx shakllanishini ilmiy asoslab bergan. Zamonaviy iqtisodchi Joseph Stiglitz monopoliyalarni bozor muvaffaqiyatsizliklarining asosiy sababi sifatida izohlaydi.

Mazkur tadqiqotda tahliliy, statistik va taqqoslash usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi va ochiq iqtisodiy hisobotlar ma’lumotlari asosida monopoliyaning iqtisodiyotdagi o‘rni o‘rganildi.

Monopoliyaning mohiyati

Monopoliya bozorda yagona ishlab chiqaruvchi hukmronligi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda firma narxni mustaqil belgilaydi va raqobat deyarli mavjud bo‘lmaydi.

Monopoliyaning shakllari

Monopoliyaning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

Sof monopoliya – yagona ishlab chiqaruvchi mavjud (masalan, elektr energiyasi tizimi)

Oligopoliya – bir nechta yirik kompaniyalar ustunlik qiladi

Monopolistik raqobat – ko‘plab firmalar mavjud, lekin mahsulotlar farqlanadi

O‘zbekistonda monopoliyalar holati

O‘zbekistonda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida monopolistik tuzilmalar saqlanib qolgan:

2023-yil holatiga ko‘ra, tabiiy monopoliyalar ulushi ayrim sohalarda 70–90% gacha yetadi (energetika, gaz ta’minoti)

Elektr energiyasi ishlab chiqarish va taqsimotining asosiy qismi davlatga tegishli korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi

Transport infratuzilmasida temir yo‘l xizmatlarining katta qismi davlat monopoliyasi hisoblanadi

2022–2024 yillarda monopoliyaga qarshi siyosat natijasida ayrim tarmoqlarda xususiy sektor ulushi 15–20% ga oshgan

Monopoliyaning ijobiy ta’siri

Yirik investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati

Infratuzilmani rivojlantirish

Strategik sohalarida barqarorlikni ta’minlash

Monopoliyaning salbiy ta’siri

Narxlarning sun’iy oshishi

Raqobatning cheklanishi

Innovatsiya sur’atlarining pasayishi

Iste’molchilar manfaatlarining zarar ko’rishi

O‘zbekiston iqtisodiyotida monopoliyalar tarixiy jihatdan davlat boshqaruvi va markazlashgan iqtisodiy tizim asosida shakllangan. Sobiq ittifoq davrida ishlab chiqarish vositalari va yirik korxonalar davlat tasarrufida bo‘lib, deyarli barcha strategik tarmoqlar yagona markaz orqali boshqarilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham iqtisodiyotning energetika, transport, aloqa va kommunal xizmatlar kabi muhim sohalarida davlat monopoliyasi saqlanib qoldi. Buning asosiy sababi ushbu tarmoqlarning mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligidir. Ayniqsa, elektr energiyasi, tabiiy gaz, temir yo‘l va suv ta’minoti tizimlari katta infratuzilma va yuqori moliyaviy xarajat talab qilgani sababli tabiiy monopoliyalar sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini keng joriy etish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hukumat tomonidan xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, davlat ulushi mavjud korxonalarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish hamda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, ayrim xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalariga xususiy investorlar jalb qilinib, monopol korxonalarning bozordagi ustun mavqeyini kamaytirishga harakat qilinmoqda. Bundan tashqari, monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish maqsadida maxsus davlat organlari faoliyati takomillashtirilib, narxlarni sun’iy oshirish yoki bozorda ustun mavqedan noto‘g‘ri foydalanish holatlariga qarshi nazorat kuchaytirilmoqda.

Biroq monopoliyalarni to‘liq bartaraf etish har doim ham iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanmaydi. Ayrim strategik tarmoqlarda tabiiy monopoliyalar mavjud bo‘lishi iqtisodiyot uchun qulayroq va tejamkorroq bo‘lishi mumkin. Masalan, elektr energiyasi tarmoqlari yoki temir yo‘l infratuzilmasini bir nechta alohida kompaniyalar o‘rtasida taqsimlash katta xarajatlarni talab qiladi hamda texnik jihatdan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli bunday sohalarida yagona tizim orqali boshqaruv iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Tabiiy monopoliyalar mavjud bo‘lgan sharoitda asosiy masala ularning faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, hozirgi davrda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri monopoliyalarni to‘liq yo‘q qilish emas, balki ularni nazorat qilish va raqobat muhitini rivojlantirish hisoblanadi. Raqobatni kuchaytirish orqali mahsulot va xizmatlar sifati oshadi, narxlar barqarorlashadi hamda innovatsion rivojlanish uchun qulay sharoit yaratiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan tabiiy monopoliyalar ustidan samarali monitoring olib borilishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Monopoliya bozor iqtisodiyotining muhim elementlaridan biri hisoblanib, u iqtisodiy tizimga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bir tomondan, yirik monopol korxonalar katta moliyaviy va texnik imkoniyatlarga ega bo‘lgani sababli strategik tarmoqlarda barqaror faoliyat yuritadi, infratuzilmani rivojlantiradi hamda yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, energetika, transport, aloqa va kommunal xizmatlar kabi sohalarida monopoliyalar aholining uzluksiz xizmat bilan ta’minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan esa, bozorda raqobatning yetarli darajada shakllanmasligi narxlarning oshishiga, xizmat sifati pasayishiga hamda innovatsion rivojlanishning sekinlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois monopoliyaning iqtisodiyotga ta’siri har doim murakkab va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham monopoliyalar, ayniqsa strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarda, hanuzgacha muhim o‘rin egallaydi. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, temir yo‘l transporti va ayrim kommunal xizmatlar sohalarida yirik davlat korxonalari ustun mavqega ega bo‘lib qolmoqda. Bu holat mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ushbu sohalarida

samaradorlikni oshirish va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida raqobat muhitini shakllantirish va monopoliyalar ta'sirini kamaytirish bo'yicha muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat ulushi mavjud korxonalarni xususiyashtirish, yangi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish orqali iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhiti asta-sekin rivojlanmoqda. Natijada ayrim sohalarda xususiy sektor ulushi ortib, xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik yaxshilanmoqda. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining bozor tamoyillari asosida rivojlanishiga va xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adam Smith – The Wealth of Nations, 1776.
2. Alfred Marshall – Principles of Economics, 1890.
3. Joseph Stiglitz – Economics of the Public Sector, 2000.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2023.

UDK: 338.5

BOZOR MUVOZANATI VA UNGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

РЫНОЧНОЕ РАВНОВЕСИЕ И ФАКТОРЫ ВЛИЯНИЯ

MARKET EQUILIBRIUM AND INFLUENCER FACTORS

Salimov Aziz Farxod o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi

Rasulova Shahnoza Abduvasi qizi

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosiy e'tibor Bozor muvozanati va unga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan. Shularni hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalari, muvozanat ham boshqa ta'sirlarni tahlilini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, narxning o'zgarishi, iste'molchilarning daromadi, iste'molchi didi va afzalliklari, ishlab chiqarish xarajatlari, texnologiya darajasi kabi omillarning muvozanatga ta'siri yoritilgan bo'lib, mavzu yakunida bozor muvozanatini tiklash mexanizmlari va erkin bozor sharoitida narxlarning muvozanatga kelish jarayoni tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Bozor muvozanati, talab, taklif, narx, iste'molchi, ishlab chiqaruvchi, daromad, texnologiya, davlat siyosati, soliq, subsidiyalar, narx nazorati, bozor mexanizmi, muvozanat narxi, tashqi ta'sirlar, ichki omillar, erkin bozor.

В данной статье основное внимание уделено рыночному равновесию и факторам, влияющим на него. С учётом этих факторов рассмотрены основные понятия рыночной экономики, а также проанализировано влияние различных факторов на равновесие. Кроме того, изучены изменения цен, поведение потребителей и производителей, их предпочтения, производственные затраты, уровень технологий и другие ключевые элементы. В заключительной части раскрыт процесс достижения рыночного равновесия и механизмы восстановления равновесия в условиях свободного рынка.

Ключевые слова: Рыночное равновесие, спрос, предложение, цена, потребитель, производитель, доход, технология, государственная политика, налог, субсидии, ценовой